

**"SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDA ISKANDAR – ADOLATLI,
ILMPARVAR
VA JASUR SHOH OBRAZI TIMSOLIDA**

Azimova Mubinabonu

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida yaratilgan Iskandar obrazining adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik va ixtirokorlik fazilatlari tahlil qilinadi. Asarda Iskandar nafaqat yurtlarni obod qiluvchi hukmdor, balki ilmni rivojlantiruvchi donishmand sifatida ko’rsatiladi. Chin xoqoni sovg’a qilgan jomdan ilhomlangan Iskandar olimlarni to’plab, usturlab va ko’zgu yasashni buyuradi. Ushbu ixtirolar orqali uning yetti iqlimni ko’ra oladigan, to’qqiz charx sirini bilishga intilgan ilmparvar hukmdor sifatidagi timsoli ochiladi. Maqola Iskandarning adolat, ilm va yaratuvchanlikni uyg’unlashtirgan ideal rahbar sifatidagi xususiyatlarini yoritadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается образ Искандара в поэме Алишера Навои «Садди Искандарий». Автор показывает его не только как справедливого и мудрого правителя, но и как покровителя науки и созидания. Получив в дар драгоценную чашу от китайского хакана, Искандар вдохновляется и приказывает учёным создать астрорябию и зеркало. Эти изобретения, позволяющие увидеть девять небесных сфер и семь климатов мира, подчёркивают научное стремление героя. Статья раскрывает образ Искандара как правителя, который сочетает в себе справедливость, просвещённость и созидательность.

Annotation: This article analyzes the character of Iskandar in Alisher Navoi’s epic “Saddi Iskandariy.” The study highlights Iskandar not only as a just and wise ruler but also as a patron of science and creativity. Inspired by the precious cup gifted by the Chinese khan, Iskandar gathers scholars and orders the creation of an astrolabe and a mirror. These inventions, capable of revealing the nine celestial spheres and the seven climates of the

world, emphasize his pursuit of knowledge. The article presents Iskandar as an ideal leader who harmonizes justice, enlightenment, and innovation.

Kalit soʻzlar: ilm-fan, adolat, jaholat devori, sulh, usturlob, 9 charx, koʻzgu

Kirish

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat “Xamsa” turkumining yakuniy boʻgʻini, balki oʻzbek adabiyotida adolatli hukmdor timsolining eng mukammal badiiy talqinlaridan biri sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Asar markazida turgan Iskandar obrazida shohlikning tashqi qudrati emas, balki ichki fazilatlar – adolat, ilmga muhabbat, xalqparvarlik, donolik va jasorat bir butun holda mujassamlashtirilgan. Navoiy tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiy obrazini oʻz davrining maʼnaviy-axloqiy mezonlari asosida qayta talqin etib, ideal hukmdor qanday boʻlishi lozimligi haqidagi qarashlarini badiiy shaklda namoyon qilgan. “Saddi Iskandariy”dagi Iskandar xalq taqdiri uchun masʼul shoh, ilmni davlatning asosiy quvvati deb bilgan zakiy rahbar, zulmga qarshi kurashuvchi adolat posboni sifatida tasvirlanadi. Shu bois bu doston oʻzining ijtimoiy-maʼnaviy mazmuni, komil inson va komil jamiyat haqidagi gʻoyalari bilan bugungi kunda ham ahamiyatini yoʻqotmagan durdona asarlardan biridir.

Asosiy qism

Bilamizki, Alisher Navoiyning bosh qahramoni adolatli podshoh obrazidir. Adolatli podshoh haqidagi adibning orzu - oʻylari, qarashlari Saddi Iskandariy dostonidagi Iskandar shoh obrazida yaqqol aks etgan.

Dostonning markazida Iskandar obrazining maʼnaviy kamolot yoʻli, uning dunyoviy va maʼnaviy gʻalabalari turadi. Asarda Iskandar va unga bogʻliq xarakterlar orqali Navoiy mukammal inson, komil hukmdor idealini yaratadi.

Navoiy “Saddi Iskandariy”da Iskandar obrazini faqat gʻolib sarkarda sifatida emas, balki adolat, halollik va maʼnaviy poklikka tayanadigan davlat boshligʻi sifatida talqin qiladi. Iskandarning bosh maqsadi — dunyoni zabt etish emas, balki “zulmning oldini olish”, “jaholat devorini qulatish” va yer yuziga tinchlik va insof olib kelishdir. Shu bois uning har bir yurishi siyosiy emas, maʼnaviy-maʼrifiy maqsadga qaratilgan.

Navoiy xalq manfaati uchun qaygʻurmagan hukmdor — hukmdor emas degan gʻoyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy tasvirlagan Iskandar — zulmga qarshi, adolatga suyanan komil podshoh timsolidir. Uning har bir ishi, har bir qarori xalq manfaati yo'lida bo'ladi. Shu sababli ham doston bo'ylab u nechalab sinovdan o'tadi va har safar adolatni tanlagan hukmdor sifatida ko'zga tashlanadi.

Doro bilan bo'lgan dushmanlik ham Iskandar uchun adolatdan ustun emas. U Doro qilgan uch vasiyatni to'liq ado etib, o'limdan so'ng ham unga hurmat ko'rsatadi. Bu bilan Iskandar g'alabasini emas, insoniylikni ustun qo'yadi.

Iskandarning adolatini Chin xoqoni bilan bo'lgan uchrashuv ham ko'rsatadi. O'z xatosini tan olib, yuzini yerga solib kelgan xoqonni Iskandar kibr bilan emas, mehr bilan qarshi oladi. Uni jazolash o'rniga: "Sen ota bo'l, men esa o'g'il bo'lay" deb, mojaroni tinch yo'l bilan tugatadi. Bu hukmdorning eng yuksak fazilatidir — kuch emas, kechirim ustuvorligini ko'rsatadi.

Iskandarning ilm va ixtiro yo'lidagi adolati

Iskandar yurtlarni zabt etib, obod qilish bilan kifoyalanmaydi — u ilm va ma'rifatning kuchiga ham tayanadi. Chin xoqoni bilan sulh tuzilganidan so'ng, xoqon unga nodir bir jom hadya qiladi. Bu jomning nafisligi, undagi nozik san'at Iskandarning o'yini uyg'otadi: "Agar ular da bo'lsa, bizda ham bo'lishi mumkin-ku? Nahot biz bunday mo'jizani yasolmasak?"

Shu fikr unga tinchlik bermaydi. Shoh darhol olimlarni huzuriga chorlab, ularga buyruq beradi. Ular Iskandar istagini ilm bilan uyg'unlashtirib, avval usturlab yasashadi — u shunday aniq va nozik edi-ki, uning yordamida to'qqiz charxning harakatini ko'rib bo'lardi. Bu ixtiro ilm osmonini yorug' qilgan mash'ala kabi edi.

Keyin esa ular ko'zgu yasaydilar. Bu oddiy oynama emas, balki aqlu zakovat bilan yasalgan badiiy mo'jiza bo'lib, unga boqilsa yetti iqlimning manzarasi aks etardi. Iskandar shu asboblarni orqali ilmning kuchini jangdan ham ulug'roq deb biladi.

Bu voqea Iskandarning adolatli hukmdor bo'lishi bilan birga, ilmni qadrlagan, ixtiro va ma'rifatni yuksaltirgan zakovatli podshoh ekanini ham yaqqol ko'rsatadi.

Quruqlik va suv podshosi

Iskandar nafaqat quruqlikdagi o'lkalarni o'rgandi, balki tog'lar va dengizlar sirini ham bilishga intildi. U Muhit dengiziga olib boradigan uzoq safarga o'tlanadi.

U avval suvning chuqurligini, kengligini o‘lchaydi, so‘ng dengizning markaziga borishga qaror qiladi. Bu safar mashaqqatli bo‘lib, borishi ikki yil, qaytishi ikki yil davom etadi. Markazga yetgach ham Iskandarning ko‘ngli to‘lmaydi. U ilm yo‘lida yanada chuqurroq ketib, dengiz tubiga tushib, suv osti olamini ham o‘rganadi.

Iskandarning oxirgi vasiyati

Uzun yillar davom etgan safarlardan keyin Iskandar zaiflashib, kasalligi kuchayadi. U o‘limning yaqinlashganini sezib, kotibini huzuriga chaqirtiradi. Undan onasiga yo‘llanadigan so‘nggi maktubni yozdiradi.

Uning so‘zlari bosiq, ammo olamdan rizolik bilan ketayotgan odamning hikmati bilan to‘ladir:

— Onam mendan keyin sochini yulib, motam tutmasin. Agar sabr qilishga kuchi yetmasa, ehson qilsin, osh tortsin. Mehmonlarga ayting: oshdan hech bir yaqini o‘lmagan odam yesin, deb... Lekin hech kim qo‘l uzatmaydi. Chunki har bir inson bir kun o‘ziga eng yaqin odamni yo‘qotadi. Onam sabr qilsin...

Iskandar mana shu so‘zlarni aytib, boshini yostiqqa qo‘ydi va bir umrgi kurashlari, g‘alabalari, ilm izlanishlari ortidan sokin holatda hayotdan ko‘z yumdi.

Xulosa

“Saddi Iskandariy” dostonida Alisher Navoiy yaratgan Iskandar obrazi adolat, ilm va ma’rifatni birlashtirgan komil hukmdor timsolidir. Doro vasiyatlarini bajarishi, Chin xoqonini kechirmog‘i, xalqiga ziyon yetkazmasligi va sotqinlarni jazolashi uning davlat boshqaruvidagi adolat mezonidir. Iskandar faqat yurtlarni zabt etish bilan cheklanmay, ilm-fanga ham xizmat qiladi. Chin xoqonining jomi uni ilhomlantirib, olimlarga usturlab va butun yetti iqlim manzarasini aks ettiruvchi ko‘zgu yasashni buyuradi. Bu ixtirolar uning tafakkur kengligi va ilmparvarligini namoyon etadi.

Navoiy talqinida Iskandar — zulmni rad etgan, tinchlik va taraqqiyotni ko‘zlagan, adolatni davlatning eng katta tayanchi deb bilgan podshohdir. Shu bois u faqat zabt etuvchi emas, balki yaratish, obod qilish va insoniyatni yuksaltirishga intiluvchi ideal rahbar sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, turli yillarda nashrlari.
2. Navoiy, A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2010.
3. Karimov, B. Alisher Navoiy dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Qosimov, B. Navoiy talqini va tadqiqi. – Toshkent: Universitet, 2001.
5. Rasulov, B. Navoiy ijodining badiiy olami. – Toshkent: Kamalak, 1996.
6. Sirojiddinov, S. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
7. Muminov, N. “Navoiyda ideal shoh konsepsiyasi”. – O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2015, №4.
8. Zahidov, O. Alisher Navoiy ijodining manbalari. – Toshkent: Fan, 1972.
9. Oripov, A. “Iskandar obrazi va uning badiiy talqini”. – Adabiy meros, 1998, №3.